

METROPOLITEN: RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MASALALARINING HUQUQIY HAL ETILISHI

Behzodbek Islombekovich ISLOMBEKOV

mustaqil izlanuvchi

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

Maqolada metropolitenning rivojlanish bosqichlari, inson taraqqiyoti uchun ulkan ahamiyati hamda yirik shahar va megapolislar hayotiy faoliyatini harakatga keltiruvchi kuch ekanligi yoritilgan. Shuningdek, metropolitenda jamoat xavfsizligini ta'minlashning murakkab demografik sharoitlarda turli mamlakatlar kesimida o'ziga xos tarzda hal etilishi masalalari tahlilga tortilgan.

Tayanch so'zlar: logistika, megapolislar, jamoat xavfsizligini, rivojlanish bosqichlari, harakatga keltiruvchi kuch.

МЕТРОПОЛИТЕН: ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ И ПРАВОВОЕ РЕШЕНИЕ ВОПРОСОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Бехзодбек Ислombeкович ИСЛОМБЕКОВ

независимый исследователь

Университет общественной безопасности Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В статье описывается возникновение и этапы развития метрополитена, его огромное значение для человеческого развития и тот факт, что он является движущей силой жизнедеятельности крупных городов и мегаполисов. Также рассматриваются уникальные подходы к решению вопросов обеспечения общественной безопасности в мегаполисах в сложных демографических условиях в разных странах.

Ключевые слова: логистика, мегаполисы, общественная безопасность, этапы развития, движущая сила.

Insoniyat tarixida transport vositasi va u bilan bogliq logistika tizimining vujudga kelishi hech shubhasiz, Yer yuzidagi misli ko'rilmagan madaniy inqilob bo'lsa, tarixiy rivojlanish larayonlarida shaharlarning ko'payishi va kengayib borishi o'z-o'zidan ikki y o'nalishli yer osti va yer usti meropolitenlarining vujudga kelishi hamda taraqqiy etishiga katta turtki berdi.

Sayyoramizda ilk bor 1843-yili Londondagi Temza daryosi ostidan piyodalar o'tadigan tonnel o'tkazilgan. Uning uzunligi 400 metr bo'lib, bu yer osti yo'li injener Mark Bryunel va uning o'g'li Isambard Kingdomning olamshumul

kashfiyoti edi. Keyinchalik yer osti yo‘li yuk va yo‘lovchi tashishning eng maqbul vositasi deb tan olindi va dunyoning sakkizinchi mo‘jizasi sifatida e’tirof etildi [7]. Buyuk Britaniyalik olimlar John R.Day va John Reedlarning ma’lumotiga ko‘ra, dunyoda birinchi yer osti temir yo‘li Londonda qurilgan bo‘lib, 6 km uzunlikdagi yer osti yo‘li 1863-yilda ochilgan va 1890-yilda elektrlashtirilgan [9]. “XX asr boshlariga kelib, Yevropaning boshqa shaharlarida ham bir qancha qisqa metro liniyalari qurilgan. 1880-yillarda Glazgoda, 1900-yili Parijda 14 km.lik birinchi yer osti liniyasi ish boshlaydi, uni qisqacha qilib “metro” deb atay boshlaganlar. 1867-yilda metro Manxettendan Bruklina olib kelingan. Keyingi o‘n yillikda Nyu-Yorkda yer osti va yer usti liniyalarining yagona tizimi yaratilgan. 1900-yilga kelib Chikagoda, 1907-yilga kelib Filadelfiyada birinchi metro ochilgan” [3;181].

XX asrning o‘rtalariga kelib, dunyoning bir necha o‘nlab yirik mamlakatlarida metropolitenlar mavjud edi.

Toshkent metropoliteni qurilishi loyihasini ishlab chiqish haqidagi tashabbus 1964-yil ilk bor o‘sha vaqtdagi O‘zbekiston davlat rahbari Sharof Rashidov tomonidan ilgari surilgan. U bu masala yuzasidan Moskvalik rahbarlarga 8-marta murojaat qilgan bo‘lsa-da, ular turli bahonalar bilan metro qurilishiga ruxsat berishmagan. Nihoyat, 1966-yili Toshkent zilzilasi keyin poytaxtimizda bo‘lib o‘tgan xalqaro anjumanda Hindiston bosh vaziri Lal Bahodir Shastri va Pokiston davlat rahbari Muhammad Ayubxon o‘rtasida tinchlik kelishuvi imzolangan. Shu vaziyatdan foydalanib, Hindiston bosh vaziri Moskvalik amaldorlarga Toshkentda aholi soni milliondan oshganligi, poytaxt uchun metroning nechog‘lik muhim ekanligini tushuntirgan. 1970-yilda Toshkent metropolitenini qurish haqida qaror qabul qilingan. Toshkent metropoliteni MDH davlatlari ichida yettinchisi bo‘lgan. E’tiborlisi shundaki, metropoliteni loyihalashtirish va qurishda O‘zbekistonlik olim, texnika fanlari doktori, akademik T.R.Rashidovning xizmatlarini g‘oyat yuksak. Olim dunyoda birinchi bo‘lib, yer osti inshootlari murakkab tizimining seysmobardoshligi dinamik nazariyasi masalalari bo‘yicha dissertatsiya himoya qilib, unda xalqimizning bino va inshootlar qurishdagi qadim an‘analaridan zamonaviy usullarda foydalanish tajribasini ishlab chiqdi [6;24].

“Toshmetroloyiha” institutida ishlab chiqilgan bu muhim tajriba seysmik jihatdan ancha zaif bo‘lgan poytaxtimiz zamini uchun juda qo‘l keldi va keyinchalik chet mamlakatlarda ham metro qurilishida foydalanila boshlandi. Bunda otobobolarimizning uy qurilishida sinchdan foydalangani kabi metropoliten qurilishida temirbeton qoplamalar, ya’ni seysmochoklar asosida yaratilgan o‘ta mustahkam to‘sinlardan foydalanildi. Toshkent metropoliteni “Metrogiprotrans” tashkiloti tomonidan loyihalashtirilgan va bunyod etilgan [5].

1977-yilda Toshkent metropolitenining birinchi bosqichi ishga tushirilgan. 1979-yildan boshlab, metropoliteni qo‘riqlash vazifasi Toshkent shahar ichki ishlar Bosh boshqarmasi zimmasiga yuklatilgan. O‘tgan asrning 1982-yiliga kelib, Toshkent metropoliteni jahondagi 37-metropoliten sifatida tarixga kirdi.

Ammo dunyo hamjamiyati oldida metropoliten qurilishi va ishga tushirilisi bilan bir qatorda undan foydalanuvchilarning xavfsizligini ta’minlash masalasi kun tartibiga qo‘yildi va uni qo‘riqlash bilan bog‘liq muammolar turli mamlakatlarning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib hal etila boshlandi.

Toshkent metropolitenida keyinchalik jamoat xavfsizligini ta’minlash ishlarida 2019-yilgacha Milliy xavfsizlik xizmati (hozir Davlat xavfsizlik xizmati) chegara qo‘shinlari va Toshkent shahar ichki ishlar Bosh boshqarmasi xodimlarining hamkorlikdagi xizmatidan foydalanilgan.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 26-mart PF-6196-son Farmoni [1], “Jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil 24-dekabr PQ-4075-son qarori [2] kabi muhim hujjatlar qabul qilindi.

Ularda mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash uchun zamon talabidan kelib chiqib, IIO faoliyatini tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizmlarini ishlab chiqish borasida bir qator vazifalar belgilab berildi. Ushbu Farmonda keltirib o‘tilgan birgina *“ichki ishlar organlari xodimlarining*

zamonaviy qiyofasini yaratish, ularning mas'uliyati va kasbiy salohiyatini oshirish, jinoyatchilikning yangi ko'rinishlariga qarshi kurashish uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish hamda sohani to'liq raqamlashtirishga erishish" bilan bog'liq fikrlarning o'ziyoq endilikda IIO MXTB xodimlarining zamon talabidan kelib chiqib, o'z intellektual salohiyatini yanada rivojlantirish, ishga nisbatan talabchan va chuqur mas'uliyatli bo'lish, xizmatda innovatsion raqamli texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini puxta egallashini taqozo etmoqda. Demak, metropoliten obyektlarida kriminogen omillarni to'liq bartaraf etish ko'rsatkichlaridan eng muhimi – bu inson omili salohiyatini kuchaytirish, xodimlarda normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar mohiyatidan kelib chiqadigan ko'nikmalarni shakllantirish va metropoliten barcha obyektlari tizimini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash orqali uni to'liq modernizatsiyalashga erishishdir.

Rossiyalik olim M.A.Smirnovning ta'kidlashicha, Nyu-Yorkda xizmat o'tash bo'yicha politsiya xodimlari o'rtasida farqlar mavjud. Shunday qilib, aholi turarjoy manzillari hududlarida jamoat tartibini saqlash xizmati bilan transportda jamoat tartibini saqlash xizmatlari o'rtasida muayyan farqlar bor [8;53].

A.N.Aleksandrov va N.N.Petrykinlarning ta'kidlashicha, Xitoy Xalq Respublikasida ham transport politsiyasining tashkil etilishi Buyuk Britaniya tartiblariga o'xshaydi. Bu yerda transportdagi ichki ishlar organlari sohasida ijroiya organlariga hamda transport ta'minoti sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi ijroiya organlarga ikki yoqlama bo'ysunadi. Bunday holat transport ta'minoti organlariga politsiya kuch va vositalari yordamida transportda xavfsizlikni ta'minlash masalasini hal qilish imkonini beradi. Bu esa, ayni vaqtda, ular zimmasiga politsiya tarkibiy bo'linmalarini moliyalashtirish zaruratini, shunga muvofiq tashkiliy-shtat masalalarini hal qilish kabi murakkab vazifalarni yuklaydi [4].

Jahondagi aholisi ko'p va ular zich yashaydigan mamlakatlarning yirik megapolislari metropolitenlari keng tarmoqli bo'lib, o'zining muayyan ma'muriy boshqaruv va qo'riqlash tizimiga, mustaqil huquqiy tuzilmasiga ega. Masalan,

Rossiya IIV Transport bosh boshqarmasi boshlig'i general-mayor D.V.Sharobarovning [10] rasmiy ma'lumotiga ko'ra, transportdagi IIB operativ bo'ysunuvida umumiy uzunligi sakson yetti ming kilometrdan ortiq temir yo'l, bir yuz to'qsonta aeroport (aerodromlar), shuningdek, yetmish ikkita dengiz va bir yuz yigirmata daryo portlari kiradi, ya'ni metropoliten transport infrastrukturasida obyektlari transportdagi IIO operativ xizmati doirasiga kirmaydi.

Angliya, Fransiya, Yaponiya, AQSH, XXR kabi davlatlarda buning teskarisi kuzatiladi. Ushbu mamlakatlarda ma'muriy va jinoyat ishlarining dastlabki tergoviy transport politsiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Chunki bu davlatlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash masalasi davlatning rasmiy politsiyasi tomonidagina emas, balki transport ta'minoti sohasida davlat siyosatini joriy etuvchi ijroiya organlarga bevosita yoki ikki yoqlama bo'ysunuvchi (masalan, Xitoyda) politsiya xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Moskva, Sankt-Peterburg, Nijniy-Novgorod, Novosibirsk, Yekaterinburg, Qozon va Samara kabi shaharlaridagi metropolitenlarda xizmat olib boruvchi politsiya xodimlarining tarkibiy tuzilishi temir yo'l politsiyasi organlarining tarkibiy tuzilishiga o'xshashdek. Biroq metropolitendagi ichki ishlar organlarining tuzilishi ulardan farq qiladi. RFning eng katta metropolitenlari Moskva va Sankt-Peterburg shaharlarida joylashgan. Politsiyaning Moskvadagi qayd etib o'tilgan bo'limlari Rossiya IIV Moskva Metropolitenlar bosh boshqarmasi ichki ishlar boshqarmasiga bevosita bo'ysunadi.

Angliyada transport politsiyasi o'ziga xos xususiyatga ega. Angliya birlashgan transport politsiyasi temir yo'l, dengiz portlari, kemalar, avtobuslar va metropolitenlarda jinoyatchilikka qarshi kurash va jamoat tartibini saqlashni amalga oshiradilar. Ular temir yo'llar, dengiz portlari va London shahar transport boshqarmasi tomonidan moliyalashtiriladi hamda tashkilotga qarashli hisoblanadi. Shu bois tashkilotga qarashli politsiya odatdagi politsiyaga qaraganda o'z tashkiloti faoliyati xavfsizligini ta'minlashda birmuncha operativdir. Tashkilotga qarashli idoraviy politsiya xizmatining asosiy vazifasi – tegishli tashkilot hududida tartibni saqlash, uning normal faoliyat yuritishini ta'minlash, shu idoraning mol-mulkini

saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurash, ishchi xodimlarning mulkiy xavfsizligini ta'minlashdan iborat. Transport politsiyasiga maqsadga muvofiqlik nuqtayi nazaridan ishni tergov qilish uchun hududiy politsiya organlariga topshirish huquqi berilgan [11].

2919-yildan boshlab, Toshkent metropolitenida jamoat xavfsizligini ta'minlash bilan bogliq barcha masalalar IIVning Transport va turizm obektlarida xavfsizlikni ta'minlash Departamentining MXTB (metropolitenida xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi) xodimlari tomonidan analga oshiriladi.

Hozirgi kunda Toshkent metropoliteni tizimi to'rtta yo'nalishdan iborat 50 ta bekatdan tashkil topgan bo'lib, masofa uzunligi jami 73 kmni tashkil etadi. 2025-yil davomida 286 mln 800ming yo'lovchi uning xizmatidan foydalangan. Shu munosabat bilan Toshkent metropolitenini modernizatciya qilish bilan bog'liq larayonlar davom etayotgan bir sharoitda jamoat xavfsizligini ta'minlash masalasining o'tkirlashuvi va uni takomillashtirish davr taqozosi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 март ПФ-6196-сон Фармони //Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.03.2021 й., 06/21/6196/0240-сон.

2. Жамоат хавфсизлигини таъминлаш самарадорлигини ошириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 24 декабрь ПК-4075-сон Қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 25.12.2018 й., 07/18/4075/2370-сон; 07.03.2019 й., 07/19/4229/2710-сон, 30.05.2019 й., 07/19/4343/3206-сон; 17.03.2021 й., 06/21/6188/0216-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 28.08.2021 й., 07/21/5235/0840-сон, 01.12.2021 й., 06/21/27/1116-сон.

3. Абдурахмонов Н. Тошкент метрополитенининг ривожланиш динамикаси таҳлили //Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги Илм-фан бўлими (электрон) журнал, 2023 йил март сони №3(41). – Б.181-184.
4. Александров А.Н., Петрыкин Н.Н. Особенности обеспечения безопасности на объектах транспорта в Китайской Народной Республике //Вестник Восточно-Сибирского института МВД России, 2017. – №4. – С.16-22.
5. Воқеа. Тошкент метроси тарихи: хужжатли фильм. Lex.uz
6. Рашидов Т. Вопросы динамической теории сейсмостойкости сложных систем подземных сооружений: Автореферат диссертации доктора технических наук. – Ташкент: Академия наук Узбекской ССР, 1971. – 24 с.
7. Старейший тоннель под Темзой открыли для пешеходов на два дня. Lenta.RU <https://Lenta.ru>
8. Смирнов М.А. Административно-правовое обеспечение общественной безопасности на объектах метрополитена: дисс. на соискание ученой степени канд. юрид наук. – Москва: Московский университет Министерства внутренних дел Российской Федерации имени В.Я.Кикотя, 2020. – С.53.
9. Day John R. Reed John. The Story of Londons Underground – 10 th. – Harrov: Capital Transport, 2008.
10. Шарабаров Д.В. ГУТ МВД России: задачи и приоритеты технического оснащения. URL: <http://secuteck.ru/articles2/spectransport/gyt-mvd-rossii-zadachi-i-prioriteti-tehnicheskogo-osnasheniya>.
11. URL: <http://www.thefullwiki.org/British Transport Police>.